



Professional ta'limda ekologik kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari

Mustaqil tadqiqotchi
Sharifov Azimbek Ergash O'g'li

Annotatsiya. *Ushbu maqolaning maqsadi ma'lum bir mintaqaning xususiyatlarini o'rganish yo'nalishlarini va ushbu bilimlardan ekologik kompetentlikni rivojlantirish motivatsiyasini asoslash uchun foydalanishni ko'rsatishga qaratilgan.*

Kalit so'zlar. *temir, marganets, ftor, mishyak, moratoriy, kompetentlik, professional, informatsion.*

Annotatsiya. *sel dannoy stati – pokazat napravleniya izucheniya osobennostey konkretnogo regiona i ispolzovaniya etix znaniy dlya obosnovaniya motivatsii razvitiya ekologicheskoy kompetentnosti.*

Klyuchevye slova. *jelezo, marganes, ftor, myshyak, moratoriy, kompetentnost, professionalnyy, informativnyy.*

Annotation. *The purpose of this article is to show the directions of studying the characteristics of a certain region and the use of this knowledge to justify the motivation for the development of environmental competence.*

Keywords. *iron, manganese, fluorine, arsenic, moratorium, competence, professional, informative.*

Kirish. Dunyo miqyosida professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining ekologik kompetentligini kimyo fanini o'qitish asosida takomillashtirish hamkorlikda o'qitishning pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlash, modellashtirish, o'qitishning uslubiy-didaktik ta'minotini rivojlantirish, professional ta'limda o'quvchilarga kimyo o'qitish metodikasini taomillashtirish, o'quvchilarda ekologik kompetentlikni rivojlanganlik darajalarini maholash mexanizmlarini takomillashtirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini mustaqil kasb egasi bo'lishga yo'naltirish, ularning o'zlari qiziqqan sohalarida iqtidor va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, yetuk mutaxassis bo'lib shakllantirish zarurati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli, 2018 yil 5 sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-sonli hamda 2019 yil 6 sentabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15 maydagi "O'zbekiston Respublikasida Kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to'g'risida"gi 287-son Qarori, O'zbekiston



Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi 163-son "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida"gi Qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu maqolamiz muayyan darajada xizmat qiladi.

Asosiy qism. So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati avvallari shafqatsizlarcha yakson etilgan yashil fondni asrab-avaylash va ko'paytirish yo'lidan bormoqda. 2019 yil noyabr oyida mamlakatda daraxtlarni kesishga qarshi moratoriy joriy etilganligi va u 2024 yilgacha amal qilinishi belgilanganligi hamda Prezident Shavkat Mirziyoev moratoriyini muddatsiz joriy etishni takidlab, moratoriy davrida mutasaddi organlarga davlat o'rmon fondiga kirmaydigan qimmatbaho daraxt va butalarni kesish uchun ruxsatnomalar berish taqiqlanishi zarurligi keltirilgan va bu bordagi ishlar Toshket viloyatida 2023 yilning birinchi yarim yiligi yakunida quyidagicha takidlanmoqda:

Toshkent viloyatida 6420 ming gektardan ortiq yer maydoni suv tejamkor texnologiyalar orqali sug'orilmoqda. Jumladan: Viloyati bo'yicha jami 4381ming 500 gektar paxta maydonlarida suv tejavchi texnologiyalar joriy etilgan bo'lib, hozirgi kunda ushbu texnologiyalar to'liq ishga tushirilgan. Xususan, Bekobod tumanida 143 gektar, Bo'ka tumanida 541 gektar, Quyi Chirchiq tumanida 579 gektar, Oqqo'rg'on tumanida 866 gektar, Piskent tumanda 414 gektar, O'rta Chirchiq tumanida 949 gektar, Chinoz tumanida 692 gektar, Yuqori Chirchiq tumanda 194 gektar paxta maydonlarida suv tejavchi texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Shu bilan bir qatorda viloyatda 1050 gektar bog' va tokzorlarda ham suv tejamkor innovatsion texnologiyalar joriy etilgan.

Bu boradagi tadbirlarni yanada kengaytirish maqsadida bog'dorchilikka ixtisoslashgan 170-200 gektar tokzor va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarini tomchilatib, 400 gektar maydonlarni esa ko'chma egiluvchan quvurlar orqali sug'orish rejalashtirilmoqda.

Shu o'rinda yana bir ma'lumot, Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan g'alla maydonlarini tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy qilingan bo'lib, Yuqori Chirchiq tumanida 44 gektar, Bo'stonliq tumanida 440 gektar, O'rta Chirchiq tumanida 503 gektar g'alla maydonlarida ushbu sug'orish usulidan keng foydalanmoqda. Viloyat bo'yicha jami 987 gektar g'alla maydoni tomchilatib sug'orilmoqda.



Shuningdek, Bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish agentligi tomonidan tomchilatib sug‘orish texnologiyasi joriy qilingan bo‘lib, Quyi Chirchiq tumanida 16 gektar, O‘rta Chirchiq tumanida 46 gektar, Yangiyo‘lda 101 gektar, Qibray tumanida 174 gektar, Ohangaron tumanida 410 gektar, Toshkent tumanida 25 gektar, Oqqo‘rg‘on tumanida 38 gektar va Parkent tumanida esa 240 gektar maydonlarda uskunalar to‘liq ishga tushirilgan. Toshkent viloyat bo‘yicha jami bog‘ va tokzorlarning 1050 gektar maydoniga suv tejevchi texnologiyalar joriy etilgan.

Ayniqsa, Yuqori Chirchiq suv zahiralari haqida gapirish juda muhim. Ular ko‘p yillik muzliklar va yomg‘ir va qor erishidan hosil bo‘ladigan suvlariga bo‘linadi. Ko‘p yillik muzliklar suvlari mavsumiy erish qatlamida joylashmagan. Ular suv ta‘minoti uchun amaliy ahamiyatga ega emas.

Ko‘p yillik muzliklar qatlami ostida yotgan muzlar ortiqcha bosimga ega. Toshkent shahrining markaziy suv olish tizimi ularga asoslanadi. Ammo bunday suvlar past darajadagi mineralizatsiyaga ega, garchi ba‘zi suvlarda temir, marganets, ftor, mishyak ko‘paygan bo‘lsa ham. Bugungi kunga kelib tasdiqlangan suv zahiralarning taxminan 17-18% ishlatilmoqda.

Toshkent viloyatining o‘ziga xos xususiyati fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlariga ko‘ra shifobaxsh bo‘lgan mineral suvlardir. Asosan, bu gidrokarbonatli magniy-kaltsiy tarkibidagi temirning yuqori miqdori (20 mg/l dan ortiq) va ba‘zan radioaktiv gazning radonli suvlari uchraydi. Suv tarkibiga ko‘ra Gruziyadagi Borjomi va Kavkazdagi Yessentuki mashhur oromgohlar suvlariga o‘xshaydi.

Xozirgi vaqtda joylarda sug‘orish manb‘asidan suv ta‘minotchilarigacha (suvdan foydalanish uyushmalari, fermer va dehqon xo‘jaliklari) suvni yetkazib berish shuningdek taminlash bo‘yicha xavza boshqarmalari va irrigatsiya tizimi tarmoqlari mavjud. Meliorativ holat va zovur tizimlari bo‘yicha monitoringni viloyat gidrogeologiya- meliorativ ekspeditsiyasi (VGGME) amalga oshiradi. VGGME funksiyasiga quyidagilar kiradi:

- kadastr uchun sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini baholash, yer osti suvlarining mineralashganligi va chuqurligi bo‘yicha inspeksiyaviy kuzatish va nazorat, kollektor zovur tarmoqlaridagi oqimni gidrometrik va gidrotexnik kuzatish, tuproq sho‘rlanishi;



- sho'rlangan yerlarda sho'rlarni yuvish me'yorini bo'yicha maslahat berish tayyorgarligi, kollektor-tashlama suvlarini sug'orish uchun foydalanish, tik zovur tizimini rejim bo'yicha ishlashi;

- xo'jaliklararo kollektor tarmoklarini tozalash, yer osti suvlari rejimini kuzatish uchun kuzatuv kuduqlarini qurish, suv va tuproqning kimyoviy tahlili. Sug'orish yerlarning mahsuldorligi va sug'orish suvining meliorativ- suv xo'jaligi yo'nalishiga ta'sirini SANIIRI ilmiy- tadqiqot tashkilotlari, O'z.NIIX va boshqalar tomonidan o'rganiladi. Fermer xo'jaliklaridagi meliorativ monitoringni bog'liqligi, hususan suv bilan taminlash bo'yicha limitli xajmda foydalanish, sug'orish va zovur tarmoqlari texnik holatini va ish qobiliyati va boshqa muammolarni hal qilish Respublika Qishloq va suv xo'jaligi Vazirligi xizmati tomonidan ta'minlanadi. Biroq maxalliy darajada konsalting va monitoringni maxsus hususiy xizmatlarini tashkillashtirish kerak. Bu yerda yangi konsalning tushunchasi yuqori malakali mutaxassis va olimlar tomonidan fermerlarga ilmiy usul va informatsion maslahatlar berish xizmati tushiniladi.

Xulosa. Ma'lum bo'lishicha, viloyat tumanlari haqida ko'p ma'lumotlar yetishmaydi. Keyinchalik biz kimyoviy-ekologik xarita tuzdik, uni suv, tuproq va havoni maqsadli o'rganish jarayonida to'ldiramiz.

Inson uchun hamma narsaning o'lchovi bo'lishi kerak. U yashash joyining o'ziga xos biomedikal, geografik, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini bilishi kerak.

Bu vazifalar turli ixtisoslikdagi olimlarning birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladi, chunki ekologiya nafaqat atrof-muhitning ifloslanishini (ko'pchilik o'ylaganidek), balki iqlim, geografik, axloqiy, ma'naviy va moddiy xususiyatlarning ta'sirini ham nazarda tutadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15 maydagi "O'zbekiston Respublikasida Kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to'g'risida"gi 287-son Qarori.



3. Tolipov O‘. Q. Oliy pedagogik ta’lim tizimida umummehnat va kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari: Dis. ... ped. fan. dokt. – Toshkent: 2004. – 314 b.

4. Трушина, Т. П. Экологические основы природопользования / Т. П. Трушина. - М.: «Дашков и К», 2006. - 348 с.

5. Хван, Т. А. Промышленная экология / Т. А. Хван. - Ростов - на - Дону: «Феникс», 2003. - 310 с.